

МАКТАБГАЧА YOSHIDAGI BOLALARDА IJOBIY EKOLOGIK MUNOSABATLARNI TARBIYALASH

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna

Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrasи dotsenti, PhD

E-mail: xaydarovashaxlo@mail.ru

Mardonova Mardona Otabekovna

Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tabiatni asrab-avaylash va ularda tabiat va tevarak-atrofga ehtiyyotkorona munosabat bo'lish, g'amxo'rlik ko'rsatish xususida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik tarbiya, atrof-muhit ekologiyasi, ekomuhit, tabiat resurslari, diniy manbalar, sof tabiat, tabiat go'zalligi.

Аннотация: В данной статье рассказывается о сохранении матушки-природы для детей дошкольного возраста и их заботе о природе и окружающей среде.

Ключевые слова: Экологическое образование, экология, экология, природные ресурсы, религиозные источники, чистая природа, природная красота.

Annotation: This article describes the preservation of Mother Nature for preschool children and their care for nature and the environment.

Keywords: Ecological education, ecology, ecology, natural resources, religious sources, pure nature, natural beauty.

Farzandlarimizni ma'naviy va jismoniy jihatdan yetuk hamda barkamol etib tarbiyalashda ekologik tarbiyaning o'ziga xos o'rni bor. Zero, ta'lim jarayoni o'zaro uzviy bog'langan ma'naviy, iqtisodiy, psixologik, texnologik taraqqiyot ta'siriga bo'ysunadi. Bu jarayon dunyoqarashi keng, iqtidorli, erkin va sog'lom fikrlovchi shaxslarni voyaga yetkazishning bosh omilidir. Aynan sog'lom bola Vatan istiqboli uchun jonkuyar bo'ladi. Tug'ilib o'sayotgan zaminining tabiatini, ota-bobolarining azaliy merosi va madaniyatini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga intiladi. Maktabgacha yoshdagi bola ong-shuurida ushbu qadriyat kurtaklarini shakllantirish, rivojlantirish, egallagan malakasini mustahkamlash, bilimini boyitish tarbiyachilardan katta mahorat talab etadi. Ekologik ta'limning ilk vazifalarini bajarishda bolalar faoliyatining turli ko'rinishlarini keng qo'llash orqali erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar jalb etiladigan faoliyatlar uyg'unlashtirilgan holda tashkil etilsa, maktab ta'limiga puxta zamin tayyorlanadi.

Yosh avlodda ona tabiatni asrab-avaylash va atrof-muhit ekologiyasiga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bolalarga kichik yoshdanoq tabiat va tevarak-atrofga ijobiy va ehtiyyotkorona munosabat hamda uning go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishni o‘rgatishdan iborat.

Yurtimizda ushbu masala bugungi kunga kelib, umum davlat ahamiyatiga ega masalaga aylanib ulgurdi. Ana shu maqsadda davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan tabiatni asrash, ekomuhitni yaxshilash, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish to‘g‘risida qator qonunlar qabul qilindi. 2000 yil 25 mayda —Ekologik ekspertiza to‘g‘risida va — Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida, 2017 yilda —Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi ko‘plab qonunlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Shubhasiz, ushbu qonunlarni qabul qilinishida mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.Karimov va Prezident Sh.Mirziyoyevning xizmatlari katta hisoblanadi. Bundan ko‘rinadik, tabiatni asrab-avaylash, ekomuvuzanatni barqarorlashtirish to‘g‘risida mamlakatimiz hukumati va Prezidentimiz shaxsan qayg‘urib kelmoqdalar. Atrof-muhit ekologiyasi, ona tabiatni asrab-avaylash, uning go‘zalligini tarannum etish, xalqimizning qadimiy qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, maqollar, rivoyatlar, afsonalar, ertak va qo‘sinq, doston kabi og‘zaki janr turlarida tabiat go‘zallidan zavq olish hissi namoyon bo‘ladi.

Masalan: — Daraxtning husni - bargi bilan.

— Cho‘lda o‘sgan giyoh ham - cho‘lga husn beradi.

— Kapalak gulni deydi, bulbul - kuyini.

— Ot - yigitning yo‘ldoshi.

— Toy otga yetkazar, ot - murodga kabi maqollarda ona tabiatning go‘zalligi va benuqsonligi ifodlanadi.

Ushbu masala yozma diniy manbalarda ham bot-bot tilga olinadi.

Avestoda insonning o‘zi tabiatning bir bo‘lagi sifatida tilga olinadi va unda tabiatni asrab-avaylashga mas‘ulligi ta‘kidlanadi. Islom dini manbalarida esa har bir inson tabiatning sofligini saqlashga majbur va undagi ne‘matlarni isrof qilmasligi lozim deyiladi.

Abu Rayon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muammad Bobur kabi allomalarimiz ham asarlarida tabiatdan oqilona foydalanish kerakligini va uning go‘zallidan zavqlanish lozimligini yosh avlodga o‘qtirib o‘tadi. Bu borada allomalardan Abu Rayxon Beruniyning tabiattra oid fikrlari va qarashlari diqqatga sazovor. Ya‘ni u faoliyati davomida o‘simliklar olamini puxta o‘zlashtirish bilan birga, ularning dorivor jihatlarini ham ko‘rsatib o‘tadi. Ibn Sino mashhur tabib sifatida tabiatdagি minglab-millionlab o‘simliklarni

o‘rganar ekan, ularni turlarga ajratadi, dorivorlik xususiyatlari va kasalliklarga shifobaxshligi, ozuqaviyligini inson salomatligi uchun naqadar foydali ekanligini amaliy ko‘rsatmalar bilan isbotlaydi. Mashhur sarkarda Amur Temur markazlashgan Movorounnahr diyorini barpo etib, uning gullab-yashnashi uchun barcha amallarni bajardi, ya‘ni qay bir yerda bo‘lmasin go‘zal bog‘u-rog‘lar barpo etib, uning parvarishishiga qo‘li gul bog‘bonlarni jalb etadi. Shu bilan birga sarkarda o‘z davrida ulkan suv inshooatlarini barpo etdi, suvni isrof qilish gunohligini o‘z farzandlari va ulomalariga ta‘kidladi. O‘z asarlarida ona tabiatning betakrorligini kuylagan alloma Zahiriddin Muhammad Boburdir. U o‘zining mashhur asari Boburnomada juda ko‘plab mamlakatlarning tabiatni, o‘simliklari va hayvonot dunyosini tilga oladi. Ularning har bir xususiyatiga to‘xtalar ekan, rivojlanishi, ko‘payishi, oziqlanishi barcha jihatlarini sanab o‘tadi.

Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, tabiatni asrab-avaylash, uning go‘zalligidan bahramand bo‘lishga chorlash masalasi nafaqat bugungi kunning muammolaridan, balki ajdodlarimizning ham diqqat markazida bo‘lgan masalalardan biri bo‘lgan. Ammo bugungi kunga kelib, yosh avlodda atrof-muhit ekologiyasiga va tabiatni asrab-avaylashga bo‘lgan mas‘uliyat, e‘tiborning tobora pasayib borayotgani har bir birimizni tashvishga solmay qolmaydi.

Buning sabablari quyidagi bilan izohlanadi:

Yosh avlod diqqati va qiziqishlarini fan-texnikaning yutuqlariga nisbatan yuqorilab borayotganligi;

Bolalar yashaydigan hududlarda sof tabiatning kamayib ketishi;

Ota-onalar va ta‘lim muassasasi xodimlarining bolalarga atrof-muhit ekologiyasi va tabiat go‘zalligini his etishga nisbatan diqqat va e‘tiborlarini yetarli darajada qarata olmayotganliklari;

Oilada bolani mehnatga jalb etmaslik, ular bilan birgalikda gul va daraxt, o‘simliklarni parvarish qilmaslik.

Ushbu omillarda e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning barchasi bolalarda tabiatni asrab-avaylash, uning go‘zalligini his etish, unga e‘tiborli bo‘lish kabi bolalardagi ijobiy fazilatlarni shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilganda, biz yosh avlodga maktabgacha ta`lim yoshidan boshlab atrof-muhit ekologiyasi va tabiat go‘zalligini his eta olishlarini, undan zavqlanishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratishga yordam berishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova P.A. Maktabgacha yoshdagagi bolalarga ekologik tarbiya berish. T., “O‘qituvchi”. 1995 yil.
2. Jabborova K.M. Maktabgacha yoshdagagi bolalarga ekologik ta`lim-tarbiya berishning o‘ziga xosligi. T., 2000 yil.

3. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari (Uch jildlik saylanma). -T.: Xalq merosi, 1-jild. 1993 yil
4. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik (A.Mahkamov tarj.). -T.: Sharq 2016. y
5. Xaydarova Shaxlo Narzullaevna, (2021). Pedagogical Approach To The Preparation The Children Of The Orphanage For Family Life. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 23-27.
6. Khaydarova Shakhlo Narzullaevna. (2021). Historical Bases For Preparing Orphanage Residents For Family Life. Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3), 24612- 24617